

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Rustamova Laylo Asadovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Axborot kommunikatsiya

texnologiyalari kafedrası assistenti

laylo75bmti@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhiti, talabalarning mustaqil ta'lim olish metodikasini yanada takomillashtirish, talim jarayonida raqamli va axborot texnologiyalaridan unumli va samarali foydalaninsh, talabalar uchun ilm olish jarayoni va ular uchun mustaqil ta'limni tashkil etishda e'tibor qarataydigan jihatlarihamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror va farmonlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, mustaqil ish, axborot texnologiyalari, mustaqil ta'lim olish metodikasi.

ABSTRACT

In this article, the digital educational environment, the further improvement of students' independent learning methods, the efficient and effective use of digital and information technologies in the educational process, the learning process for students and the aspects that they pay attention to in the organization of independent education for them are also discussed. Opinions were expressed about the relevant decisions and decrees of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.

Key words: digital education, independent work, information technologies, independent learning methodology.

АБСТРАКТНЫЙ

В данной статье рассматривается цифровая образовательная среда, дальнейшее совершенствование методов самостоятельного обучения студентов, эффективное и результативное использование цифровых и информационных технологий в образовательном процессе, процесс обучения студентов и аспекты, на которые они обращают внимание в организации. самостоятельного образования для них также обсуждены. Высказаны мнения о соответствующих решениях и постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан.

Ключевые слова: *цифровое образование, самостоятельная работа, информационные технологии, методика самостоятельного обучения.*

KIRISH

Mamlakatimizning jadallik bilan rivojlanib borayotgan barcha jabhalarida bo'lganidek oliy ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida 1998-1999 yildan boshlab mustaqil ta'limga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi. Uning hajmi o'quv faniga ajratilgan soatlarning bakalavriatda 15-20 foizini, magistraturada esa 40-45 foizini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi oliy talim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlarda mustaqil ta'lim o'quv jarayonining auditoriyadan tashqari shaki bo'lib, u kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan dastur bo'yicha nazariy va amaliy topshiriq shaklida tashkil etilishi ko'rsatilgan. Mustaqil ta'lim olish-oliy ta'lim tizimida talabalarning maqsadga yo'naltirilgan o'quv faoliyatidirki, bunda talabalarning o'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi tomonidan mustaqil bilim olishga yo'naltiriladi (mustaqil o'rganish uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tavsiya etiladi, maslahatlar uyushtiriladi va bajarilishi nazorat qilinadi) va boshqariladi. Bugungi kunda talim sifati va samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri - bu talabalar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish va ularda mustaqil o'qish faoliyatini shakllantirishdan iborat. Talabalar dunyoqarashini

shakllantirishda va o'zgartirishda kreativ texnikalarni qo'lab yechimni topish mumkin bo'lgan ijodiy vazifalar muhim ahamiyatga ega. Har qanday o'quv fani bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil o'quv faoliyati muhim hisoblanib, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Bugungi kunga kelib esa axborotlar olamidan bahramand bo'lishning tezlashgani, xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengaygani, globallashuv jarayonlari jadallashgani bois talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish masalasi asosiy vazifa hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ishi bu talabaning o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'qishga qiziqtirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan. Talabalarning mustaqil ishlari mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o'quv materialini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Odatda talabalarning mustaqil ishlari talabaning to'la mustaqil faoliyati bilan birgalikda auditoriyadan tashqarida bajariladigan o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishini ham o'z ichiga oladi.

Izlanishlar va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining barcha pog'onalarida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish va amaliy tajribalarni qo'yishda texnologik muammolar yuzaga keladi. Ya'ni, aksariyat talabalarda mustaqil o'qish va mustaqil ishlash ko'nikmalari yetarlicha emas, shuning uchun o'qituvchilar ko'p hollarda talabalarga mustaqil ishlash uchun har doim bir xil shakldagi vazifalarni (taqdimot tayyorlash, seminarda ma'ruza qilish, test tuzish, konspekt qilish, referat yozishva hokazo) beradi. Bu esa talabaning ijodiy ishlash faoliyatiga salbiy ta'sit ko'rsatadi.

Mustaqil o'qishning asosiy maqsadi, talabaning o'qituvchi yordamisiz o'zi mustaqil ravishda shug'ullanishi bilan emas, balki uning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Talabalarning mustaqil o'qish faoliyatining samaradorligi quyidagi faktorlar bilan aniqlanadi:

- o'zida tasavvur qilish ko'nikmasini shakllantiruvchi qiymatli-motivatsion komponenta va kasbiy motivatsiya;

- umumlashgan bilimlarni egallagan kognitiv komponentalar.

Talabalarning mustaqil ishlari quyidagi shakllarda joriy etilishi mumkin:

- talabaning bevosita o‘zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari;

- axborot izlash - o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o‘rganish;

- forum - fan mavzulari bo‘yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta‘lim platformalarida fikr almashish;

- test yechish-o‘rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash;

- nazorat ishiga tayyorlanish-fan bo‘yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko‘rish masala yechish-amaliy mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha berilgan masalalarni yechish va uni yozma tarzda taqdim qilish;

- referat – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahliliy bayon qilinadi;

- kollokvium – o‘quv modulining nazariy qismining o‘zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish;

- esse-dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

- taqdimot – berilgan mavzu bo‘yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish;

- keys - stadi ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlar bo‘yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo‘yicha yechim izlash;

- ish o‘yinlari – kasbiy faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro qilish orqali kasbiy ko‘nikmalar orttirish;

- kurs ishi – fan yoki fanlar majmuasi (korxonalar iqtisodiyoti, menejment asoslari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, fuqaro himoyasi va h.k.) muammolari bo‘yicha belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida bajariladigan belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan yozma va hisob ishlari;

- kurs loyihasi – fan yoki fanlar majmuasi (texnik mexanika, texnologik jarayon va qurilmalar, mutaxassislikka oid loyiha ishlari bajariladigan fanlar) muammolari bo'yicha belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida bajariladigan grafik chizmalar ilova qilinadigan belgilangan uslubiy qo'llanmalar asosida yoziladigan hisob ishlari;

- fan to'garaklarida ishtirok etish – talabani fan to'garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko'rgazmali materiallarni tayyorlashi;

- tanlovlarda ishtirok etish – talabani o'qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi (Yosh ixtirochil, talabalar startap loyihalari va h.k.); ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilish – fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha OTM, Respublika va xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma'ruza qilish;

- ilmiy tezis va maqolalar chop etish – ilmiy anjumanlarning to'plamlarida tezislari va ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha maqolalar chop qilish;

- elektron shakldagi o'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlari.

O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlari ularning bayoni, mavzulari, topshiriqlari, o'tkazish shakllari, soatlar hajmini ham ko'rsatgan holda fanning sillabusida fan modullari bo'yicha keltiriladi. Talabalarning mustaqil ishlari mazmuni fanning xususiyatidan, oliy o'quv yurtining texnik imkoniyatlaridan va kutubxonaning o'quv-uslubiy ta'minlanganidan kelib chiqib aniqlanadi. Talabalarning mustaqil ishlari innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo'lishi kerak. O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlarining auditoriyadagi shakli berilgan topshiriq doirasida talabalarning darslik va birlamchi manbalar, guruhli topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi tahliliy faoliyatlarni ko'zda tutadi. O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlari har bir fan bo'yicha butun akademik o'qish davrida sana, vaqti, auditoriyasi ko'rsatgan holda grafik bo'yicha o'tkaziladi.

XULOSA

Talabalarning mustaqil ishlari doirasidagi mashg'ulotlar maslahat va interfaol shakllarda bo'lishi mumkin, ularning nisbati o'rganilayotgan fanning murakkabligi, ularni o'rganishga ajratilgan auditoriya soatlari hajmi, talabalarning tayyorgarlik

darajasi bilan aniqlanadi. Bir soʻz bilan aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yoʻnaltirilgandir. Hozirgi zamon talabalarining butun hayoti davomida bilim olishini taʼminlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 dagi “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PQ -3775-son qarori.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 y dagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” gi PF-5847-son Farmoni.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

4. L.A.Rustamova “Raqamli taʼlim muhitida talabalarning mustaqil taʼlim olish metodikasini takomillashtirish”. Taraqqiyot tadqiqotlari: muammo, taklif va islohotlar mavzusidagi Respublika koʻp tarmoqli imiy-amaliy anjumanlari materiallari toʻplami, 12-son 1-qismi, 25 dekabr (2023) Toshkent: “IMFAKTOR Pages”, 2023-69 b. 46-50 bet.

5. V. Azimova “Raqamli texnologiyalarni taʼlim jarayoniga tadbiq etishning ustuvor vazifalari”. Taraqqiyot tadqiqotlari: muammo, taklif va islohotlar mavzusidagi Respublika koʻp tarmoqli imiy-amaliy anjumanlari materiallari toʻplami, 12-son 1-qismi, 25 dekabr 2023 yil. Toshkent: “IMFAKTOR Pages”, (2023) -69 b. 51-52 bet.

6. L.A.Rustamova “ Sunʼiy intellekt-fan va taraqqiyotning yuksak bosqichi” GOLDEN BRAIN ISSN:2181-4120 VOLUME 1 ISSUE 17 (2023) 118-126 bet.

7. H.B.Ismatov., A.O.Umarov., L.A.Rustamova Interfaol usullardan foydalanib “Oliy matematika” fanining oʻqitish haqida ayrim mulohazalar. Akademik

Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyoziy tavalludining 120 yilligiga bag‘ishlangan II Respublika oliy va o‘rta maxsus ta’lim yurtlari professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilarining “XXI asrda fan va ta’lim” mavzusidagi ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent–Buxoro. (2017) 200-201b.

8. I.I.Safarov., A.O.Umarov., L.A.Rustamova Распространение гармонических волн в цилиндрической панели с учётом вязкоупругих свойств материала. Математика. Механика. Информатика Вып.2 (25) (2015)

9. Л.А.Рустамова Обучение школьников решению логических задач на уроках информатики с использованием информатсионно-коммуникатсионных технологий. Педагогика и психология: вопросы теории и практики. Международный научный электронный журнал № 5 (2022) С. 46-51. ISSN 2686-8822 www.EPEJ.ru